ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 128 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Hayotovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari..... 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

AUTIZM SPEKTRI BUZILISHIGA EGA BOLALARDA NUTQIY MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

A. B. Mamatova
"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm spektri buzilishiga (ASB) ega bolalarda nutqiy muloqotning o'ziga xos xususiyatlari, ularning psixik rivojlanish qonuniyatlari hamda pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish usullari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida autizm spektri buzilishiga ega bolalarni ta'limga jalb etish va ularning ta'lim olishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hamda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari tahlil qilingan. Maqolada ushbu bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda samarali metodlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: autizm, kommunikativ nutq, psixologik korreksiya, exolaliya, vizualizatsiya, korreksion pedagogika, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy adaptatsiya.

Abstract: This article examines the specific characteristics of speech communication in children with autism spectrum disorder (ASD), the patterns of their psychological development, and methods of providing pedagogical and psychological support. It also analyzes educational reforms implemented in the Republic of Uzbekistan, with a particular focus on expanding access to education and improving educational opportunities for children with ASD. Special attention is given to modern educational technologies and effective approaches aimed at developing and strengthening communication skills in children with autism spectrum disorder.

Key words: autism, communicative speech, psychological correction, echolalia, visualization, corrective pedagogy, inclusive education, social adaptation.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности речевой коммуникации детей с расстройствами аутистического спектра (РАС), закономерности их психического развития, а также методы оказания педагогической и психологической помощи. Проанализированы образовательные реформы, реализуемые в Республике Узбекистан, и возможности обеспечения доступного и качественного образования для детей с расстройствами аутистического спектра. Особое внимание уделяется современным педагогическим технологиям и эффективным методам формирования и развития коммуникативных навыков у данной категории детей.

Ключевые слова: аутизм, коммуникативная речь, психологическая коррекция, эхолалия, визуализация, коррекционная педагогика, инклюзивное образование, социальная адаптация.

KIRISH

Autizm spektri buzilishi (ASB) bolalarning ijtimoiy muloqoti, kommunikativ faoliyati, xulq-atvori va rivojlanishining ayrim jihatlariga ta'sir ko'rsatuvchi neyrorivojlanish xususiyatlari majmuasidir. Mazkur holatning namoyon bo'lish darajasi va shakllari individual farqlarga ega bo'lib, har bir bolaning kommunikativ imkoniyatlari, bilish faoliyati hamda ta'limiy ehtiyojlarini alohida o'rganishni talab qiladi. Shu sababli ASBga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy maxsus pedagogika, logopediya va inklyuziv ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jahon miqyosida autizm spektri buzilishining tarqalishi bo'yicha ko'rsatkichlar diagnostika mezonlari, kuzatuv metodlari, tadqiqot o'tkazilgan hudud va yosh guruhiga qarab farqlanadi. Masalan, AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlarining 2020-yilgi kuzatuv ma'lumotlarida 8 yoshli bolalar orasida ASBning aniqlangan tarqalishi taxminan har 36 boladan birida qayd etilgan. Mazkur ko'rsatkichni butun dunyo bolalariga bevosita tatbiq etish mumkin emas, biroq u muammoni erta aniqlash, ilmiy asoslangan yordamni tashkil etish va ta'lim muhitini moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash, ularni ijtimoiy hayotga jalb etish va inklyuziv ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son[1] qarori alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish va inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son[2] qarorida esa alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga doir normativ-huquqiy hujjatlar tasdiqlangan.

Mazkur huquqiy asoslar ta’lim jarayonida bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olish, zarur pedagogik ko‘makni tashkil etish va ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday sharoitda logoped, maxsus pedagog, psixolog, o‘qituvchi va ota-onalarning o‘zaro hamkorligi alohida o‘rin tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autizm atamasi yunoncha autos – “o‘zi” so‘zidan kelib chiqqan. Biroq mazkur etimologiya ASBning ilmiy ta’rifini to‘liq ifodalamaydi. Hozirgi ilmiy yondashuvlarda autizm ijtimoiy muloqot va o‘zaro munosabatlardagi o‘ziga xosliklar, shuningdek, cheklangan yoki takrorlanuvchi xatti-harakatlar, qiziqishlar va faoliyat shakllari bilan tavsiflanadigan neyrorivojlanish holati sifatida qaraladi. Hozirgi kunda autizm spektri buzilishiga ega bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish maxsus pedagogika va psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Autizmda verbal va noverbal muloqotni ritmik tashkil etishni takomillashtirish uchun logopediya texnologiyalarini joriy etish masalasi Leo Kanner, Eygen Bleyler va R. V. Shramm tadqiqotlarida, autizm spektri buzilishiga ega bolalarning og‘zaki monologik nutqini shakllantirishning umumiy kontekstida prosodikani rivojlantirish masalasi esa S. G. Shcherbak tomonidan ko‘rib chiqilgan.

Autizmni tasniflash, logopedik tekshirish va korreksion ish tizimini ishlab chiqish bo‘yicha Leo Kanner, Hans Asperger, Lorna Wing, Michael Rutter, Ye. N. Vinarskaya, R. V. Shramm va boshqa olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Autizmning yengil shakllarida o‘ziga xos stereotip harakatlarni farqlash usullari O. S. Nikolskaya, A. F. Chernopolskaya, R. N. Martinova ishlarida yoritib berilgan.

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqning fonetik-fonematik jihatdan rivojlanishidagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari M. V. Ippolitova, L. V. Lopatina, N. V. Serebryakova va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Autizmning kelib chiqish sabablari va tasnifi L. R. Mo‘minova, M. Y. Ayupovalar tomonidan ilmiy tahlil qilingan.

Shuningdek, bugungi kunda autizmning o‘ziga xos simptomatik xususiyatlarini o‘rganish chuqur ilmiy izlanishlarni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, autizm spektridagi turli rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb ilmiy masalalaridan biridir.

Autizm spektri buzilishi bosh miya rivojlanishi va faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq murakkab neyrorivojlanish holati hisoblanadi. Uning shakllanishida genetik va biologik omillarning o‘zaro ta’siri muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda bosh miya nerv tarmoqlarining shakllanishi, neyronlararo aloqalar hamda qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari autizm spektri buzilishining neyrobiologik asoslarini o‘rganishda muhim yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda.

Autizm atamasi dastlab psixiatriya sohasida Eygen Bleyler tomonidan qo‘llanilgan. Keyinchalik Leo Kanner bolalardagi autizmga xos rivojlanish xususiyatlarini alohida klinik holat sifatida tavsiflagan. Uning tadqiqotlarida ijtimoiy munosabatlar va muloqotdagi qiyinchiliklar, qiziqishlarning o‘ziga xosligi hamda takrorlanuvchi xatti-harakatlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Kasalliklarning xalqaro tasnifi – MKB-10 bo‘yicha bolalar autizmi F84.0 kodi ostida belgilangan. Zamonaviy diagnostik yondashuvlarda esa autizm spektri buzilishi kengroq neyrorivojlanish holati sifatida baholanadi. Uning dastlabki belgilari ko‘pincha bolaning erta rivojlanish davrida, jumladan, hayotining dastlabki ikki yilida sezilishi mumkin. Biroq ayrim bolalarda ushbu xususiyatlar ijtimoiy talablar ortishi bilan keyinroq yaqqol namoyon bo‘ladi.

Autizm spektri buzilishi o‘g‘il bolalarda qizlarga nisbatan ko‘proq aniqlanadi. Bunda diagnostika mezonlari, ijtimoiy omillar va qiz bolalarda autizm xususiyatlarining turlicha namoyon bo‘lishi ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi ilmiy qarashlarga ko‘ra, autizm spektri buzilishining yagona sababi aniqlanmagan. Uning shakllanishida bir qator genetik, neyrobiologik va prenatal omillarning o‘zaro ta’siri muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

1 https://lex.uz/docs/-5044711
2 https://lex.uz/ru/docs/-5679836

Ilmiy tadqiqotlarda quyidagi omillar o‘rganilmoqda:

- genetik moyillik va irsiy omillar;
- homila rivojlanishi davrida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ayrim genetik o‘zgarishlar;
- bosh miya rivojlanishining neyrobiologik xususiyatlari;
- neyronlararo aloqalarning shakllanishi va faoliyatidagi o‘ziga xosliklar;
- ayrim prenatal va perinatal omillarning ehtimoliy ta’siri;
- xromosoma va genetik sindromlar bilan bog‘liq ayrim holatlar;
- homila rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan biologik va tashqi muhit omillari.

Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda vaksinalar autizm spektri buzilishiga sabab bo‘lishi haqidagi faraz tasdiqlanmagan. Keng ko‘lamli epidemiologik tadqiqotlar emlash va autizm o‘rtasida sababiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmagan.

Autizm spektri buzilishining xususiyatlari odatda bolalikning erta davridan mavjud bo‘ladi. Biroq uning namoyon bo‘lish darajasi, kommunikativ ko‘nikmalar, ijtimoiy moslashuv imkoniyatlari va kundalik faoliyatdagi ehtiyojlar inson hayoti davomida o‘zgarishi mumkin. Erta aniqlash, individual yondashuv, pedagogik-psixologik yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bolaning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Ayrim hollarda autizm spektri buzilishi bolalik davrida aniqlanmay, o‘smirlik yoki katta yoshda tashxislanishi mumkin. Bu holat autizmning aynan katta yoshda paydo bo‘lganini anglatmaydi, balki uning xususiyatlari ilgari yetarlicha aniqlanmagan yoki boshqa holatlar bilan bog‘liq deb baholangan bo‘lishi mumkin.

Katta yoshdagi shaxslarda autizm spektri buzilishining namoyon bo‘lishi individual xususiyatlarga ega. Jumladan, ijtimoiy muloqotdagi qiyinchiliklar, noverbal signallarni tushunishdagi o‘ziga xosliklar, takrorlanuvchi xatti-harakatlar va sensor sezgirlik bilan bog‘liq holatlar kuzatilishi mumkin. Bunda autizmning o‘zi bilan bir qatorda ayrim ruhiy va nevrologik holatlar ham uchrashi ehtimoli mavjud.

Xususan, quyidagi holatlar autizm spektri buzilishiga ega ayrim shaxslarda birgalikda kuzatilishi mumkin:

- depressiv holatlar;
- xavotir va boshqa ruhiy salomatlik bilan bog‘liq qiyinchiliklar;
- ayrim nevrologik holatlar.

Mazkur holatlar autizm spektri buzilishining bevosita sabablari sifatida emas, balki ayrim shaxslarda birgalikda uchrashi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha holatlar sifatida baholanishi lozim.

Autizmli bemorlarning quyidagi guruhlari ajratiladi:

Birinchisi - bemorlar tashqi dunyo bilan aloqa qilishdan bosh tortishadi, aloqalar deyarli nolga tushiriladi.

Ikkinchisi - odamlar o‘zlarini tortib olishadi, butun vaqtlarini bir xil faoliyatga bag‘ishlashlari mumkin. Ular uxlash yoki dam olish zarurligini unutishadi va uzoq vaqt uyg‘oq yurish bilan ham uxlash istagini his qilishmaydi.

Uchinchisi - jamiyatning ijtimoiy tartiblari va me’yorlarini e’tiborsiz qoldiradigan odamlar (chunki ularni idrok eta olmaydilar).

To‘rtinchisi - kundalik muammolarini hal qila olmaydigan bolalar. Ularda boshqalarga nisbatan xafagarchilik hissi paydo bo‘ladi.

Beshinchisi - yuqori darajadagi intellektga ega bo‘lgan bolalar, ular ijtimoiylashishga muvaffaqiyatli urinishadi va jamiyatga moslashadilar. Ular boshqalar bilan deyarli teng sharoitlarda o‘zaro aloqada bo‘lishlari, o‘qish, kasblarni o‘rganish va aqliy mehnat bilan bog‘liq sohalarda ishlashlari mumkin.

Autistlarning so‘nggi guruhida vaqti-vaqti bilan “daholik” namoyon bo‘lgan holatlar ham bor. Uning faollashishi autizmga chalingan odamning miyasida sodir bo‘ladigan jarayonlar bilan bog‘liq. Bunday odamlar ilm-fan va kasbiy sohalarning turli yo‘nalishlarida juda katta yutuqlarga erishishlari mumkin. Ammo ularning dunyo bilan o‘zaro munosabatlari ko‘pincha yaqinlarining tushunmovchiligi bilan murakkablashadi. Bemorlarning qarindoshlari va atrof-muhit ko‘pincha bemorning ahvolini yomonlashtiradi, u bilan noto‘g‘ri muloqot qiladi va kamsitadi. Qarindoshlar va autist o‘rtasida aloqa o‘rnatish uchun maxsus kurslar tashkil etiladi, unda siz nafaqat bemor bilan muloqot qilish usulini topishingiz, balki unga kerakli o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini o‘rgatishingiz mumkin. Bunday kurslarning samaradorligi ko‘p jihatdan bemorning ahvoliga va kasallikning namoyon bo‘lish shakliga bog‘liq.

Autizm belgilarining namoyon bo‘lish darajasiga ko‘ra guruhlarga ajratishdan tashqari, yana bir tasnif mavjud. Rossiyada 1987-yilda autizmning barcha ko‘rinishlarini paydo bo‘lish sabablariga ko‘ra 6 turga ajratadigan sxema ishlab chiqilgan:

- Asperger sindromi – F84.5;
- atipik autizm – F84;
- Kannerning erta klassik infantil autizm sindromi;
- bolalik davrida kuzatiladigan dizontogenetik buzilishlar – F84.3;
- Rett sindromi mavjudligidan kelib chiqqan autizm – F84.2;
- stereotipik xatti-harakatlar va aqli zaiflik bilan keladigan turi – F84.4;
- kelib chiqishi noma’lum autizm – F84.9.

Keyinchalik ushbu tizim autizmning ma’lum sabablarini va uning turlarini ASB (autizm spektrining buzilishi) umumiy qisqartmasi ostida birlashtirishga imkon berdi.

Bolalarda autizm belgilari:

- muloqot qilish istagi va tengdoshlariga qiziqish yo‘qligi;
- oyoqlarning uchida yurishi;
- atrofdagi odamlarning borligi va hissiyotlariga e’tibor bermaslik;
- rivojlanishning dastlabki bosqichi uchun normal bo‘lgan taqlid funksiyasining yo‘qligi;
- bolalar ota-onalarining yuz ifodalarini takrorlashmaydi, javoban tabassum qilmaydi, kattalarning imo-ishoralarini takrorlamaydi yoki ongli ravishda qilmaydi;
- bolalar o‘zlarining muammolari va fikrlarini ota-onalari bilan bo‘lishmaydilar;
- nutq va nutqiy bo‘lmagan aloqa rivojlanishidagi muammolar, nutqning yetishmasligi;
- yuz ifodalari va imo-ishoralarning yetishmasligi;
- bola ko‘z bilan aloqa qilishdan qochadi, suhbatdoshga tabassum qilmaydi;
- nutq rivojlangan, ammo bola boshqalar bilan aloqa qilmaydi, ularga javob bermaydi;
- bola iboralarni yoki individual so‘zlarni takrorlaydi (Kanner tasnifiga ko‘ra, “gramofon” yoki “to‘tiqush” nutqi), nutqdagi fonetik buzilishlar.

Autistlar intonatsiya bilan bog‘liq muammolarga duch kelishadi, nutq monoton yoki ritmik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Agar autizm yengil shaklda bo‘lsa, unda 20–25 yoshga kelib, odam allaqachon qarindoshlari yoki vasiylaridan alohida yashashi va o‘z muammolarini mustaqil ravishda hal qilishi mumkin. Agar bu shakl autistga bunday turmush tarzini olib borishga imkon bermasa, u odatda butun umri davomida qarindoshlarining qaramog‘ida qoladi. Autizmning yuqoridagi belgilari shifokorlarga rivojlanish, ijtimoiy xulq-atvor va boshqa ko‘nikmalardagi muammolar bo‘yicha tashxis qo‘yish va turli xil aqliy og‘ishlarni xatosiz aniqlashga imkon beradi. Shuni esda tutish kerakki, atrofdagi odamlar bilan aloqa qilmaslik ijtimoiy deprivatsiyaga olib keladi, bu esa, o‘z navbatida, rivojlanishning kechikishining ikkilamchi alomatlarini keltirib chiqaradi.

Autizm spektri buzilishlari bilan tavsiflanadigan bolalarda ijtimoiy o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor sohalarida chuqur va barqaror cheklanishlar kuzatiladi. Ayniqsa, noverbal muloqot vositalarining yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu bolalarning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy integratsiyasida asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi.

Noverbal muloqot mimika, jest, tana harakati, ko‘z bilan aloqa va fazoviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi hamda nutq rivojlanishining poydevori sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, autizm spektrli bolalarda aynan ushbu komponentlar sezilarli darajada buzilgan bo‘lib, ular boshqalarning yuz ifodalarini anglashda, hissiy holatini farqlashda va muloqotga kirishishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Allan Paivioning ikki kanalli kodlash nazariyasiga ko‘ra, axborot vizual shaklda berilganda miyada mustahkamroq saqlanadi, bu esa autizmli bolalarda o‘rganish jarayonining samaradorligini oshiradi. Vizual vositalar tushunchasi keng bo‘lib, ular predmetli, tasvirli, grafik va raqamli ko‘rinishlarga bo‘linadi. Predmetli vositalar real buyumlar va modellar orqali bolada ma’no va harakat o‘rtasidagi bog‘liqlikni shakllantirsa, tasvirli vositalar

piktogramma, rasm va fotosuratlar yordamida mimika va jestlarni anglashni osonlashtiradi. Grafik vositalar, xususan, vizual jadval va ijtimoiy hikoyalar bolaga vaziyatni oldindan ko‘ra bilish va mos xulqni tanlash imkonini beradi. Raqamli vizual vositalar esa interaktivlik orqali bolaning motivatsiyasini oshiradi.

Amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, PECS tizimi, vizual jadval, ijtimoiy hikoyalar va mimik kartochkalar yordamida ishlangan autizmli bolalarda ko‘z bilan aloqa, ishora orqali ehtiyoj bildirish, hissiy holatni tanish va ifodalash ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Vizual vositalar asosida olib borilgan korreksion ishlar bolaning mustaqilligini oshiradi, muloqotdagi agressiv yoki chekinuvchi xulqni kamaytiradi va ijtimoiy moslashuvni ta’minlaydi. Shu bilan birga, vizual yondashuvlar tizimli, bosqichma-bosqich va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda qo‘llanilgandagina yuqori natija beradi.

Umumiy qilib aytganda, autizm spektrli bolalarda noverbal muloqotni rivojlantirishda vizual vositalardan foydalanish ilmiy asoslangan, samarali va zamonaviy yondashuv bo‘lib, u bolaning psixik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kanner autizmni “ijtimoiy aloqadan chekinish sindromi” sifatida tavsiflab, mimika va jestlardan foydalanishning cheklanganligi autizmning asosiy diagnostik belgilaridan biri ekanini ta’kidlagan. Keyinchalik Lorna Wing tomonidan 1981-yilda ishlab chiqilgan “autistik triada” nazariyasida ham ijtimoiy o‘zaro ta’sir, muloqot va tasavvur sohalaridagi buzilishlar markaziy o‘rin egallaydi va bunda noverbal muloqot muammosi asosiy komponent sifatida ko‘rsatiladi.

Lorna Wingning ilmiy ishlari autizm spektrli bolalarda vizual vositalarga asoslangan noverbal muloqotni rivojlantirish nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslanganligini ko‘rsatadi va ushbu yondashuvning bugungi kunda xalqaro miqyosda tan olingan samarali metod ekanini tasdiqlaydi. Ushbu vizual vositalar autizmni bartaraf etishda asosiy dastak vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari, autizmni bartaraf etishda quyidagi uslubiyatlar ham samarali hisoblanadi:

- xulq-atvor terapiyasi dasturlari;
- “rivojlanish modellari”dan foydalanish;
- logopedik terapiya;
- ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish;
- mehnat terapiyasi;
- antidepressantlar;
- antipsixotiklar;
- talvasaga qarshi preparatlar.

Autizmni to‘liq bartaraf etish juda qiyin. Remissiya faqat 5% hollarda sodir bo‘ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda autizm spektri buzilishini o‘rganish masalasining dolzarbligi uning klinik namoyon bo‘lishidagi xilma-xillik hamda pedagogik-psixologik yordamni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Ushbu masala tibbiyot, psixologiya, pedagogika, logopediya va boshqa soha mutaxassislarining e’tiborini jalb etmoqda. Autizm spektri buzilishi bolalarning ijtimoiy muloqoti, kommunikativ faoliyati va xulq-atvorining ayrim jihatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli autizm spektri buzilishiga ega bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, ularning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirish hamda samarali pedagogik yordam usullarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda noverbal muloqotni rivojlantirish korreksion-pedagogik ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur bolalarda ayrim takrorlanuvchi harakatlar va xulq-atvorning o‘ziga xos shakllari kuzatilishi mumkin. Bunday xususiyatlar bolaning individual ehtiyojlari, sensor sezgirligi va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlari asosida baholanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, noverbal muloqot vositalarini shakllantirish va rivojlantirish bolaning o‘z ehtiyojlarini ifodalashi, boshqalar bilan munosabat o‘rnatishi hamda ijtimoiy muhitga moslashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ushbu maqsadlarga erishishda vizual vositalardan foydalanish keng qo‘llanilmoqda. Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda verbal va noverbal muloqotni rivojlantirish individual yondashuvni, izchil pedagogik faoliyatni hamda mutaxassislarning o‘zaro hamkorligini talab etadi. Korreksion-pedagogik ishlarning samaradorligi pedagogning kasbiy mahorati, bolaning individual rivojlanish xususiyatlari va ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olish bilan chambarchas bog‘liq.

Vizual vositalar autizmli bolalarda noverbal muloqotni rivojlantirishning samarali yondashuvlaridan biri sifatida qaraladi. Ular bolaning diqqatini jamlash, axborotni tushunish va kundalik faoliyatni tashkil etish jarayon-

larini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Bunda vizual vositalarni izchil, individual yondashuv asosida va bolaning qiziqishlariga mos holda qo‘llash muhim hisoblanadi. Autizmli bolalar uchun muloqot faqat og‘zaki nutq bilan cheklanmaydi. Noverbal muloqot, ya’ni imo-ishoralar, yuz ifodalari va tana harakatlari bolalarning o‘zini ifodalashi, boshqalar bilan munosabat o‘rnatishi va atrof-muhitni tushunishida muhim o‘rin tutadi.

Ivar Lovaas amaliy xulq-atvor tahlili - ABA (Applied Behavior Analysis) yondashuvining autizmli bolalar bilan ishlashda qo‘llanilishiga muhim hissa qo‘shgan tadqiqotchilardan biridir. Doktor Ivar Lovaas va uning Kaliforniya universitetidagi hamkasblari 1963-yildan boshlab bolalar bilan xulq-atvorga asoslangan metodikalarni qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur yondashuvning asosiy vazifalaridan biri bolalarda ta’lim olishga qiziqishni rivojlantirish, zarur ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish va mustaqil faoliyat imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Autizm spektri buzilishiga ega bolalar bilan ishlashda ABA yondashuvi ayrim kommunikativ va kundalik hayot ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin. Ushbu yondashuv doirasida vizual stimullar, kartochkalar, predmetlar va boshqa yordamchi vositalardan foydalanish orqali bolaning noverbal muloqot imkoniyatlarini kengaytirishga e’tibor qaratiladi.

Vizual qo‘llab-quvvatlash orqali quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkin:

- ko‘z bilan aloqa qilishning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqotga kirishish;
- imo-ishoralardan foydalanish;
- predmetlarni tanlash;
- ehtiyoj va talablarni ifodalash.

“Stimulus – reaksiya – natija” modeli bolada muayyan ko‘nikmalarni o‘zaro bog‘liq kichik bosqichlar orqali shakllantirishni nazarda tutadi. Har bir bosqich bolaning individual imkoniyatlari va o‘zlashtirish darajasiga muvofiq tashkil etiladi. Muayyan ko‘nikma yetarli darajada shakllangach, keyingi bosqichga o‘tiladi.

Kutilgan xulq-atvorni shakllantirishda ijobiy rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash, maqtov va bolaning qiziqishlariga mos motivatsion vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv bolaning faoliyat natijalarini anglashiga, o‘z harakatlarini boshqarishiga va yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishiga yordam berishi mumkin. ABA yondashuvining muhim maqsadlaridan biri bolaning atrof-muhit bilan mustaqil munosabatga kirishishi, o‘z ehtiyojlarini ifodalashi va kundalik hayotda zarur ko‘nikmalarni egallashini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Holding-terapiya. Oilaviy psixoterapiya bolaning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda oila a’zolariga psixologik yordam ko‘rsatish, o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash va ijobiy emotsional muhitni shakllantirishga qaratiladi. Autizm spektri buzilishiga ega bolalar tarbiyasida ota-onalarning psixologik tayyorgarligi, bolaning individual ehtiyojlarini tushunishi va unga mos muloqot usullaridan foydalanishi muhim ahamiyatga ega.

Holding-terapiya tarixan amerikalik psixiatr M. Welch tomonidan ilgari surilgan va ayrim mutaxassislar, jumladan, R. Elmhirst, I. Prekopp, M. Zappella, J. Richer hamda M. M. Libling ishlarida muhokama qilingan yondashuvlardan biridir. Mazkur metodikaning tarixiy shakllarida ota-ona va bola o‘rtasidagi jismoniy yaqinlik hamda emotsional munosabatlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Biroq zamonaviy ilmiy-amaliy yondashuvlarda bolaning roziligi, shaxsiy chegaralari, emotsional xavfsizligi va individual ehtiyojlarini hurmat qilish ustuvor hisoblanadi. Shu sababli bolaning qarshiligiga qaramay uni majburan ushlab turishga asoslangan amaliyotlar tavsiya etilmaydi. Ota-ona va bola o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarni rivojlantirishda xavfsiz, ixtiyoriy va bolaning hissiy holatiga mos muloqot usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Oilaviy psixologik yordamning samaradorligi ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish, bolaning kommunikativ ehtiyojlarini tushunish va kundalik hayotda qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish bilan bog‘liq. Bunday yondashuvlar bolaning o‘zini xavfsiz his qilishi, yaqinlari bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatishi va muloqotga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Son-Rise metodikasi. Son-Rise metodikasi autizm spektri buzilishiga ega bolalar bilan ishlashda qo‘llanilgan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu dastur Barri va Samariya Kaufman tomonidan o‘z farzandlarining rivojlanish ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur yondashuvda bolaning qiziqishlari, individual xususiyatlari va emotsional ehtiyojlariga e’tibor qaratiladi. Pedagog yoki ota-onaning bolaning faoliyatiga asta-sekin, ehtiyotkorlik bilan qo‘shilishi o‘zaro munosabatlarni shakllantirishga yordam berishi mumkin.

Ayniqsa, muloqotga kirishishda qiynaladigan bolalar bilan ishlashda ishonchli va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Son-Rise dasturida bolaning tashabbuslarini kuzatish, uning qiziqishlariga mos faoliyatni tashkil etish hamda ijobiy emotsional munosabatlarni rivojlantirishga e’tibor beriladi.

Shu bilan birga, ushbu metodikaning samaradorligi bo‘yicha ilmiy dalillar cheklanganligi sababli uni barcha bolalar uchun bir xil natija beradigan yondashuv sifatida baholash maqsadga muvofiq emas. Metodikadan foydalanish bolaning individual ehtiyojlari va mutaxassislar tavsiyalariga asoslanishi lozim.

Sensor integratsiya va rag‘batlantirish (SIR) metodikasi (predmetli terapiya). Sensor integratsiya yondashuvi mehnat terapiyasi mutaxassisi Jean Ayres tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur yondashuv sezgi tizimlaridan kelayotgan axborotni qayta ishlash va kundalik faoliyatda undan foydalanish jarayonlarini o‘rganishga asoslanadi.

Sensor integratsiya bilan bog‘liq mashg‘ulotlar bolaning individual sensor ehtiyojlari, qiziqishlari va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bunda turli predmetlar, harakatli o‘yinlar va sensor materiallardan foydalanish mumkin.

Mashg‘ulotlarning davomiyligi, takrorlanish chastotasi va murakkablik darajasi bolaning yoshiga, individual imkoniyatlariga hamda mutaxassis tomonidan belgilangan maqsadlarga muvofiq tanlanadi. Mashqlar bosqichma-bosqich murakkablashtirilib, bolaning o‘zlashtirish darajasiga qarab yangi faoliyat turlari kiritilishi mumkin.

Sensor integratsiya yondashuvi autizm spektri buzilishi, Daun sindromi, nutqiy rivojlanishdagi qiyinchiliklar va bolalar serebral falaji kabi holatlarda ayrim funksional ko‘nikmalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘llanilishi mumkin. Biroq uning samaradorligi muayyan maqsad, bolaning individual xususiyatlari va qo‘llanilgan usullarga qarab farqlanadi.

Autizm spektri buzilishiga ega ayrim bolalarda tovush, yorug‘lik, teginish, harakat yoki boshqa sensor ta’sirlarga nisbatan yuqori yoki past sezgirlik kuzatilishi mumkin. Shu sababli sensor faoliyatlarni tashkil etishda bolaning qulayligi, xavfsizligi va individual ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir.

Art-terapiya va ijodiy faoliyat metodikalari. Rasm chizish, loy yoki plastilin bilan ishlash, konstruktiv o‘yinlar va boshqa ijodiy faoliyat turlari bolaga tanlov qilish, predmetlarni so‘rash, harakatlarni izohlash va kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda qatnashish imkonini beradi.

Mazkur faoliyatlar logopedik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirilganda, masalan, predmet nomlarini o‘rganish, harakatlarni ifodalovchi fe’llardan foydalanish, so‘rov bildirish va navbat kutish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Bunda asosiy e’tibor faoliyatning o‘ziga emas, balki uning davomida yuzaga keladigan mazmunli muloqotga qaratiladi.

Musiqa terapiyasi. Musiqiy o‘yinlar, ritmik mashqlar va qo‘shiq elementlaridan foydalanish ayrim bolalarda birgalikdagi faoliyatga qiziqishni oshirish hamda navbatma-navbat harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berishi mumkin. Musiqiy faoliyat bolaning sensor xususiyatlari va qiziqishlariga moslashtirilishi, uning noqulaylik yoki ortiqcha zo‘riqishiga sabab bo‘lmasligi kerak.

Umuman olganda, vizual ko‘mak, PECS, TEACCH, logoritmika, ijodiy va musiqiy faoliyatlar alohida maqsadlar asosida tanlanishi hamda bolaning kundalik hayotidagi kommunikativ ehtiyojlar bilan bog‘lanishi lozim. Metodlarning samaradorligi bolaning individual natijalari, kuzatuv ma’lumotlari va mutaxassislar hamkorligi orqali baholanadi.

O‘zbekistonda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish va inklyuziv muhitni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar shakllantirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-son[3] qarori inklyuziv ta’limni rivojlantirishga doir muhim vazifalarni belgilagan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son[4] qarori esa umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish va alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashga oid tartiblarni belgilaydi.

Inklyuziv ta’limning mazmuni bolani faqat umumta’lim muassasasiga qabul qilish bilan cheklanmaydi. U bolaning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi, o‘quv materiallaridan foydalanishi, tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatishi va zarur mutaxassislik yordamini olishi uchun sharoit yaratishni ham nazarda tutadi.

ASBga ega bolalarni qo‘llab-quvvatlashda individual ta’lim dasturlari, moslashtirilgan o‘quv materiallari, vizual jadvallar, kommunikatsiya vositalari va mutaxassislar hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda logoped, maxsus pedagog, psixolog, sinf rahbari, ota-ona va zarur hollarda yordamchi pedagogning o‘zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati bolaning ta’limiy va kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Erta aniqlash va o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish ham alohida ahamiyatga ega. Bolaning kommunikativ rivojlanishidagi qiyinchiliklarni imkon qadar erta aniqlash, oilaga maslahat berish va zarur pedagogik hamda mutaxassislik yordamiga yo‘naltirish rivojlanish imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq erta aralashuv natijalarini aniq foizlarda ifodalash uchun tegishli ilmiy tadqiqotlar va ishonchli statistik manbalarga tayanish zarur.

3 https://lex.uz/docs/-5044711
4 https://lex.uz/ru/docs/-5679836

XULOSA VA TAKLIFLAR

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish murakkab, ko‘p yo‘nalishli va individual yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Ushbu jarayonda bolaning faqat og‘zaki nutqi emas, balki kommunikativ tashabbusi, noverbal vositalardan foydalanishi, suhbatga kirishishi, ehtiyojlarini ifodalashi va boshqa shaxslar bilan o‘zaro ta’sirga kirishishi ham hisobga olinishi lozim.

PECS, TEACCH, vizual ko‘mak, logoritmika, ijodiy va musiqiy faoliyatlar bolaning individual ehtiyojlariga muvofiq tanlanganida korreksion-pedagogik ishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Shu bilan birga, mazkur metodlardan foydalanish bolaning rivojlanish xususiyatlarini baholash, aniq maqsadlarni belgilash va erishilgan natijalarni muntazam kuzatish bilan birga olib borilishi zarur.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy asoslar ASBga ega bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, oilalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ilmiy asoslangan metodikalarni amaliyotga joriy etish talab etiladi.

Demak, ASBga ega bolalarda kommunikativ rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning asosiy tamoyili bolani yagona me’yor asosida baholash emas, balki uning individual imkoniyatlarini aniqlash, muloqotga kirishish ehtiyojini qo‘llab-quvvatlash va mazmunli kommunikatsiya uchun qulay muhit yaratishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son[5] Qonuni (yangi tahriri). – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son[6] qarori. – Toshkent, 2020-yil 13-oktabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-son[7] qarori. – Toshkent, 2021-yil 12-oktabr.
4. Mo‘minova L. R., Amirsaidova Sh. M. Maxsus psixologiya. – Toshkent: “Noshir”, 2013.
5. Raxmanova V. S. Defektologiya asoslari. – Toshkent, 2014.
6. Qaxarova D. S. Inklyuziv ta’lim texnologiyasi. – Toshkent, 2014.
7. Pulatxujayeva M. R. Defektologiyaning klinik asoslari. – Toshkent, 2012.
8. Ayres A. J. Sensory Integration and the Child (Bolalar va sensor integratsiya). – Scholastic, 2005.
9. Bondy A., Frost L. A Picture’s Worth: PECS and Other Visual Communication Strategies. – Woodbine House, 2011.
10. Шипицына Л. М. Развитие навыков общения у детей с РАС. – Санкт-Петербург, 2014.
11. Nurkeldiyeva D. A. Logopediya (darslik).

5 https://lex.uz/docs/-5013007
6 https://lex.uz/docs/-5044711
7 https://lex.uz/ru/docs/-5679836

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.